
Ilg'or terimchilar aniqlandi

Ayni kunlarda yurtimiz dalalarida paxta yig'im-terim mavsumi avj pallaga kirib bormoqda. Ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmay yig'ib olish maqsadida terimchilar, ko'ngilli hasharchilar astoydil bel bog'lab mehnat qilishmoqda.

Rishton tumanida ham paxtakorlar paxta hosilini yig'ib olish ishlarini jadal sur'atda olib borishmoqda.

Bugun tumanimizdagi «Yoqut yog'dusi» nomli fermer xo'jaligida 15-oktyabr—"Xalqaro qishloq ayollari kuni"munosabati bilan «Eng ilg'or paxtakor» tanlovining viloyat bosqichi o'tkazildi.

Unda 14 ta tumandan kelgan ilg'or terimchilar g'oliblik uchun kurash olib borishdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, birinchi o'rin Rishton tumani vakiliga, ikkinchi o'rin Yozyovon tumani vakiliga, uchinchi o'rin Bag'dod tumani vakiliga nasib etdi.

Mazkur tadbirda qatnashgan tuman sektor rahbarlari terim jarayonida ishtirok etishdi.

Shundan so'ng, faol terimchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Xusasan, birinchi o'rin sohibiga muzlatgich, ikkinchi o'rin sohibiga gaz plitasi, uchinchi o'rin sohibiga televizor sovg'a qilindi.

????Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-10-03 16:42:10